

“MIRZO ULUG‘BEK – ILM MA‘RIFAT XOMIYSI”

“МИРЗО УЛУГБЕК-ПОКРОВИТЕЛЬ НАУКИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ”

“MIRZO ULUGBEK-PATRON OF SCIENCE AND ENLIGHTENMENT”

Sirojiddinova Ma'muraxon Sharofiddinova

Qo'qon DU Gumanitar fanlar va tillar fakulteti tyutori

Hasanova Muazzaxon Latifjon qizi

Qo'qon DU Gumanitar fanlar va tillar fakulteti talabasi

+99890-308-75-27

“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz kerak”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk olim va ilm-fan homiysi hisoblanmish Mirzo Ulug‘bekning hayotidagi voqeliklar va ilmiy merosining vatanimizda hamda jahonda tutgan o‘rni haqida yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, “To‘rt ulus tarixi”, madrasa, rennessans, Movorounnahr, Yangi O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье освещены реалии жизни и место научного наследия великого ученого и покровителя науки Мирзо Улугбека на родине и в мире.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, “Зиджи Джадиди Курагани”, “История четырех улусов”, медресе, Ренессанс, Мовороннахр, Новый Узбекистан.

Abstract. This article covers the realities of the life of Mirzo Ulugbek, considered a great scientist and patron of Science, and the role of his scientific heritage in our homeland and in the world.

Keywords: Mirzo Ulugbek, “Ziji jadidi Koragani”, “History of the four ulus”, madrasa, rennessans, Movorounnahr, New Uzbekistan.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda ilm-fan taraqqiyotiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda o‘tmish ajdodlarimizning ilmiy merosini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalari bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: “Ta’lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz” [1], — degan iqtibosli so‘zlarini aytib o‘tishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Mirzo Ulug‘bekning faoliyati haqida: “Mirzo Ulug‘bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi - tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatdi. Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma’naviyatining poydevoriga qo‘yilgan tamal toshlaridan biri bo‘lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko‘rsatadi” [2, – 46 b.] – deya fikr bildirib o‘tgan.

Mirzo Ulug‘bek haqida Temuriylar davrining buyuk shoiri Alisher Navoiy shunday degan edi:

Temurbek naslidin Sulton Ulug‘bek, Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek. Alisher Navoiyning dostonlarida, “Majolis un-nafois” asarida hamda “Farhod va Shirin” dostonida Mirzo Ulug‘bekning faoliyatiga yuqori baho berib o‘tganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Abu Toxirxojaning “Samariya” hamda Faxriy Heraviyning “Ravzat us-salotin” asarlarida Mirzo Ulug‘bekning adabiyotga va she‘riyat ahlini sevishi munosabatini hamda ularni munosib taqdirlashi haqida keltirib o‘tilgan [3, – 6 b.].

Mashhur tazkiranavis shoir Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ushshuaro” (Shoirlar zikri) asarida Mirzo Ulug‘bek haqida olimlik va podshohlikni bir shaxsda mujassamlashtirgan tarixdagi kam sonli siymolardan biri ekaniga urg‘u berib o‘tgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Bobumoma” asarida Shoxrux Mirzo davlatining Movarounnahr viloyatini Mirzo Ulug‘bek boshqarganini she‘riy tarzda ifodalar ekan, uning podshoh sifatidagi faoliyatiga emas, balki ilm-fan va madaniyat homiysi, rahnamosi sifatidagi faoliyatiga yuksak baho beradi [4, – 58 b.].

Mirzo Ulug‘bek shon shuhrati Yevropa va G‘arb mamlakatlarida ham mashhur bo‘lib, Ispan elchisi Rui Gansales de Klavixo “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat” nomli kundaliklarida bir nechta ma‘lumotlar keltirilganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Rui Gansales de Klavixoning ta‘riflaridan bilishimiz mumkinki, yoshligida ham Mirzo Ulug‘bek davlat tadbirlarida, diplomatik-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan degan xulosala chiqarishimiz mumkin.

Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida Mirzo Ulug‘bekni odil hukmdor sifatida Movarounnahmi boshqarganligi va riyoziyot ilmining yetuk olimi sifatida

“Ziji Ko‘ragoniy” jadvalini yaratgani hamda ilmiy faoliyat bilan Samarqandda barpo ettirgan rasadxonasida shug‘ullangani haqida ham tilga olingan [5, – 123 b.].

Olimning ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish an‘anasi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, uning hayoti va faoliyatiga oid masalalar G‘arbiy Yevropa, Rossiya va O‘zbekiston sharqshunoslik va tarix maktablarining vakillari olib borgan izlanishlarda o‘z aksini topdi. Ulug‘bekning Vatanida aynan O‘zbekistonda XX asr davomida ushbu muammo bo‘yicha salmoqli nashrlar e‘lon qilindi. Mazkur davrdagi tadqiqotlar, bir tomondan, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish borasidagi muayyan yutuqlari bilan, ikkinchi tomondan esa tarixiy voqealarga noxolis baho berishlar bilan ham ifodalanadi. Aynan tarixiy voqealiklarni noto‘g‘ri talqin etish mustamlakachilik davri tarixshunosligiga xos holat bo‘lganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Mazkur dolzarb muammoning tarixini o‘rganish nafaqat Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlardagi o‘zgarishlarni kuzatishni, balki muayyan tarixiy tadqiqotning tarix fanining uzviyligini, turli davrlarda davlatchilikning siyosiy va mafkuraviy shakllaridagi umumiy jihatlarini ham namayon etadi.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish bir necha yuz yillardan beri davom etib kelmoqda. Hodisalar shunday bo‘lishiga qaramay, mazkur masala dunyo olimlari nigohini o‘ziga jalb qilishga davom etmoqda. XX asr boshidan to xozirgi kunga qadar O‘zbekistonda ham Mirzo Ulug‘bekni ham o‘rganish bo‘yicha katta hajmdagi ilmiy ishlar yaratildi.

ASOSIY QISM

Buyuk olim va davlat arbobi, temuriylar sulolasining yorqin namoyandasi Mirzo Ulug‘bekning shon sharafiga dunyo fani sahifalariga zarhal harflar ila bitilgan. Uning astronomiya, matematika, geometriya, geografiya va boshqa ko‘plab fanlar rivojiga qo‘shgan o‘lkan hissasi, Mirzo Ulug‘bek (to‘liq ismi sharifi - Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragon) 1394-yilning 22-martida Amir Temurning harbiy yurishlari paytida Eron Ozarbayjonidagi Sultoniya shahrida dunyoga kelgan. Amir Temur suyukli nabirasining tarbiyasini katta rafiqasi Saroymulxonimga topshiradi va ana shundan keyingi 11 yil davomida berilgan tarbiya Mirzo Ulug‘bekning buyuk inson bo‘lib shakllanishida katta rol o‘ynagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Temurzoda Shohrux o‘g‘li 1409-yilda Ulug‘bekni Samarqand hokimi etib tayinlagan va 1411-yildan boshlab esa Mirzo Ulug‘bek butun Movarounnahr boshqaruvini qo‘lga olib, Samarqandni ilm- fan markaziga aylantirdi [6, -220b.].

Mirzo Ulug‘bek fan xomiysi bo‘lish bilan birga, mamlakatda ma‘naviyat va ma‘rifat rivoj topishiga ham katta ahamiyat bergan allomadir.

Ulug'bek to'rt madrasa – 1417-yili Buxoro va 1433-yili G'ijdivonda bittadan, 1417-1420-yillarda Samarqandda ikkita madrasa qurdirgan. O'sha davrda Samarqandda Ulug'bek qurdirgan madrasalardan tashqari Xonim, Qutbiddin Sadr va Muhammad Sulton madrasalari ham mavjud edi.

Buxorodagi Madrasa peshtoqiga hadisdan olingan ushbu lavha: “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir”, deb yozdirib qo'yilganini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Buyuk olim Samarqandda rasadxona zamirida o'zining akademiyasi ya'ni “Ulug'bek akademiyasi”ga asos solgan. Ushbu akademiyada olib borilgan ilmiy kuzatishlari natijasida “Ziji jadidi Ko'ragoniy” (“Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali”) va “To'rt ulus tarixi” kabi mashhur asarlari yaratilgan.

Olimning asosiy ilmiy asari “Ziji jadidi Ko'ragoniy”da 1437-yilda astronomik yilning uzunligini 365 kun, 6 soat 10 daqiqa 8 soniya o'lchamda aniqlagan, noaniqlik esa atigi 58 soniyani tashkil etgandi holos.

Mustaqillik yillarida vatanimiz ilm-fanining yangicha metodologik yondashuvlari qaror topdi. Tarixiy voqealarining odilona manzarasini tiklash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Bunga faqat arxeologik, yozma, moddiy yodgorliklarni, numizmatik topilmalarni ishonarli va chuqur tahlil etib o'rganish orqali hamda turli tarixiy fan sohalaridagi olimlarning ilmiy salohiyatini birlashtirish bilangina amalga oshirish mumkin. Shularni inobatga olib mashhur tarixiy shaxslarning faoliyatini, ularning ilmiy va ma'naviy merosini o'rganish alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan maqsadlar ila jahon ilmiy tafakkuri rivojiga munosib hissa qo'shgan mashhur olim, zabardast hukmdor, davlat boshqaruvining ayrim yo'nalishlarida o'zining buyuk ajdodi Amir Temur an'alarini davom ettirgan Mirzo Ulug'bek faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi.

Mirzo Ulug'bek tavalludini nishonlash marosimlari arafasida tadqiqot ishlari yanada jadallashdi. Shu jumladan, Ulug'bekning “Ziji jadidi Ko'ragoniy”, “Tarixi arba'ulus” kabi asosiy asarlari tarjima qilinib, nashr etildi. Shu jumladan vatanimizda hamda xorijda olimning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan bir qator xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Bu ma'lum darajada Mirzo Ulug'bekning olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyati tarixshunosligi doirasini yanada kengayishiga imkon berdi. Olimning ilmiy merosi qay darajada muhim ekanligi haqida Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday degan edi: “Mirzo Ulug'bekday benazir allomaning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi. Mirzo Ulug'bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalni yaratdi... “Ziji jadidi Ko'ragoniy”

deb nomlangan Ulug‘bek astronomik jadvali o‘rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani bu fikrimizning yaqqol isbotidir” [7, -320 b.].

XX asr boshlarida Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi o‘rnini aniqlashdagi bahs-munozaralar, uning ochilishi tarixi bilan bog‘liq turli fikr va mulohazalar, mazkur me‘moriy merosni o‘rganishga arxeologiya fanida alohida e‘tibor qaratilganligi bilan ham tom ma‘noda qiziqarlidir. Katta hajmdagi ilmiy adabiyotlarga umumiyashtirilgan tarzda yondashib o‘rganish Mirzo Ulug‘bek faoliyatining tarixiy manzarasini yaratish imkonini ochib beradi hamda keyingi izlanishlar, aniq yo‘nalishlarni belgilab olish uchun xizmat qiladi.

1994-yilning 19-martida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ilm-fan oldidagi ulkan xizmatlarini hisobga olib, “Buyuk o‘zbek olimi, astronom, matematigi, fizigi, Temuriylar sulolasining munosib davomchisi yirik davlat arbobi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning 600 yilik tavalludi munosabati bilan” 1994-yilni “Ulug‘bek” yili deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi farmonga imzo chekdi [8]. Ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining tarkibiy qismi hisoblangan YUNESKO xalqaro tashkiloti Bosh konferensiyasining 27-sessiyasi kun tartibiga umumjahon miqyosidagi tadbirlar qatoriga Mirzo Ulug‘bek yubileyi ham kiritildi [9]. Bu albatta barcha vatanparvar xalqimizni shodligiga va quvonchiga sabab bo‘la oladi.

Shu yili Samarqand shahrida Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630-yilligi keng nishonlandi. Prezidentimizning “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630-yilgini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Buyuk olimning xizmatlarini e‘zozlab Samarqand shahrida 2024-yil 10-11-oktabr kunlari esa “Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkaziladi. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari o‘zbek, rus va ingliz tillarida, “To‘rt ulus tarixi” nomli tarixiy asarining o‘zbek tiliga tarjimasi qayta nashr qilinganligi, Toshkent shahrida Ulug‘bekga haykal o‘rnatilganligi, Samarqandda Ulug‘bek muzeyi tashkil qilinganligi, Ulug‘bek observatoriyasi yonida Mirzo Ulug‘bekka haykal o‘rnatilganligi, O‘zbekiston milliy universitetiga Mirzo Ulug‘bek nomi berilib o‘tganligi (1995) barchani to‘lqinlantira oladi albatta. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizdagi oliy ta‘limlarda yoshlar uchun “Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyasi” ta‘sis etilganligini eslab o‘tishimiz darkor. Vatanimizning har bir Uchinchi Rennessans yoshlari tarixdagi Ikkinchi Rennessans asoschisi bilan faxrlansa arziydigan holatdir.

Mirzo Ulug‘bekdek hukmdor jahon tarixida kam uchraydi sababi 40-yilga yaqin hukmronlik qilib, rasadxona qurgan va 1018 ta yulduzning jadvalini tuzganligidan faxrlansak arziydi.

Mirzo Ulug‘bek qalamiga mansub matematik asari “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolayi Ulug‘bek” va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt

ulus tarixi”) asari hamda musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risola, - “bulujiy”, “axloqiy”, “tabriziy”, “shodiyona”, “usuli ravon”, “usuli otlig‘” jami oltitita kuylarni ijod qilib yaratgan [10,- 25 b.].

Yuqoridagilar buyuk olim to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning bir qismidir. Ulug‘bek aniq fanlar, hususan, astronomiya, matematika rivojiga ma‘lum hissa qo‘shgan. Uning hukmronligi davrida Movorounnahr davlatida ilm-fan, madaniyat, san‘at, me‘morchilik rivojlangan. Uning rahbarligida madrasalar (ta‘lim muassasalari) qurilib, ularda diniy fanlar bilan bir qatorda aniq fanlar – astronomiya, matematika o‘qitilganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Ilmiy maqsadlarda rasadxona va zarur asboblari qurildi. Ulug‘bek astronomiya maktabini yaratib, unda Sharqning ko‘plab olimlari ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytaolamizki, Mirzo Ulug‘bek jahon taraqqiyotiga o‘zining ilmiy izlanishlari bilan ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma bo‘lib, Temuriylar davrida shakllangan Ikkinchi Rennessans g‘oyalarini elgari surib va amalga oshirishda munosib hissa qo‘shgan buyuk shaxsdir. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Uchinchi Rennessans poydevorini qurishda Mirzo Ulug‘bek yaratgan asarlar g‘oyaviy-ma‘naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Eng asosiysi, Temuriylar davrida Movorounnahrda tinch hayot taraqqiyotga shart-sharoit yarata bera oldi. Ya‘ni urushlar deyarli Movorounnahrdan tashqarida olib borildi. Bu esa ilm-fan taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar zamiri bo‘ldi.

Vatanimizda ko‘plab olimlar o‘zlarining ilmiy faoliyatlarini olib bormoqdalar. Shulardan matematiklar, fiziklar, astronomik va geografik olimlar va boshqa soha vakil olimlari uchun ulkan hizmatlarini e‘zozlab davlatimiz tomonida “Mirzo Ulug‘bek” mukofotini ta‘sis etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi yoshlarni vatanparvarlik ruhida ulg‘ayishiga, tarixga hurmat bilan nazar tashlashga, yurtga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, uning tarixiy ma‘zmunli hayoti, shaxsi, adabiyotlari O‘zbekistonni jaxon miqyosida mos ravishda rivojlantirishda, jamiyatdagilarni Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida birlashtirishda tarixda bo‘lgan bunyodkor g‘oyalardan saboq olgan holda tarixiy bilimlarga e‘tibor qaratishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligining 33-yilligiga bag‘ishlangan prezident nutqidan. Toshkent-2024.08.31.
2. I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent: Ma‘naviyat-2008.

3. B.Ahmedov “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida” Toshkent: O‘qituvchi-1996.
4. Mirzo Muhammad Haydar. “Tarixi rashidiy”. Toshkent: Sharq-2010.
5. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600-yilligiga bag‘ishlangan halqaro ilmiy anjuman ma‘ruzalarning materiallari. Toshkent-Samarqand. 1994-yil. 12-16-oktyar.
6. Sanaqulov U., Handamova M., Mamaraimov Q. “Amir Temur saltanatining donishmand vorisi”. - T.: “Navro‘z”, 2014.